

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 08 | pp. 57-67 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MILLIY IQTISODIYOTDA DAVLAT INVESTITSIYA DASTURLARI DOIRASIDA INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH



"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE
TECHNOLOGY AND SCIENCE" instituti dotsenti PhD.,

Valiyeva Sayyora Xushbaqovna

Sayyora3001@gmail.com

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В РАМКАХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОГРАММ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

PhD., доцент института "INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE
TECHNOLOGY AND SCIENCE"

Валиева Сайёра Хушбаковна

Sayyora3001@gmail.com

IMPROVING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT PROJECTS WITHIN THE FRAMEWORK OF STATE INVESTMENT PROGRAMS IN THE NATIONAL ECONOMY

"INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE"

Institute

PhD., Associate Professor

Valieva Sayyora Khushbakovna

Sayyora3001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturlari doirasida investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturining ilmiy-nazariy asoslari o'rganib chiqilgan. Investitsiya loyahasini amalga oshirish bosqichlari, investitsiyalarning samaradorligini baholashning turli usullari, hamda davlat investitsiya dasturlarini monitoring qilish tizimi ko'rib chiqilgan. Shuningdek milliy iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturlari doirasida investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: Investitsiya, investitsiya loyihasi, davlat investitsiya dasturlari, samaradorlik, baholashning modulli usuli, diskontlash koeffitsiyenti, rentabellik koeffitsiyenti, ekspert baholash, sof foyda, monitoring.

Аннотация: В данной статье освещаются пути повышения эффективности инвестиционных проектов в рамках государственных инвестиционных программ в национальной экономике. Исследованы научно-теоретические основы государственной инвестиционной программы в экономике. Рассмотрены этапы реализации инвестиционного проекта, различные методы оценки эффективности инвестиций, а также система мониторинга государственных инвестиционных программ. Также разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности инвестиционных проектов в рамках государственных инвестиционных программ в национальной экономике.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиционный проект, государственные инвестиционные программы, эффективность, модульный метод оценки, коэффициент дисконтирования, коэффициент рентабельности, экспертная оценка, чистая прибыль, мониторинг.

Abstract: This article covers ways to improve the efficiency of investment projects within the framework of state investment programs in the national economy. In economics, the scientific and theoretical foundations of the state investment program are studied. The stages of implementation of the investment project, various methods of assessing the effectiveness of investments, as well as a system for monitoring state investment programs were considered. Also in the national economy, proposals and recommendations have been developed to improve the effectiveness of investment projects within the framework of state investment programs.

Keywords: Investment, investment project, government investment programs, efficiency, modular method of assessment, discounting coefficient, profitability coefficient, expert assessment, net profit, monitoring.

Kirish (Introduction/Введение).

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatdoshligini kuchaytirishda investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan. O'zbekiston Respublikasining 2023 - 2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-dekabrda PQ-459-son qarori¹ qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi qaroriga muvofiq, investitsiya dasturlarini shakllantirish, ularni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga keskin va ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalar bilan to'ldirish, loyihalarni amalga oshirish hamda ular ishga tushirilgandan so'ng investitsiyadan keyingi monitoringini amalga oshirish tartibi aniq belgilab berilgan.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi investitsiya dasturini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, Tiklanish va taraqqiyot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-dekabrda PQ-459-son qarori

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 14 yanvardagi 16-son qarori

jamg'armasi, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va boshqa markazlashtirilmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli ro'yxatini shakllantirib boradi, shuningdek, Investitsiya dasturining amalga oshirilishini umumiy monitoring va nazorat qilish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.


Iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturi deganda – ma'lum bir maqsadli yo'nalishga ega bo'lgan investitsiya loyihalari yoki takliflari to'plami tushuniladi. Xususiyatiga qarab, investitsiya dasturlari davlat, mintaqaviy yoki sanoat xarakteriga ega bo'lishi mumkin. Korxonalarga nisbatan investitsiya dasturlari faqat ularni xususiylashtirish rejasiga asosan investitsiya faoliyatini amalga oshirishda tenderda ishtirok etish uchun ishlab chiqiladi.

Investitsiya loyihasi mazmun-mohiyatini investitsiya tushunchasiga bog'lagan holda tushunish o'rinlidir va shunga muvofiq, uni, bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda, kelajakda foyda (daromad) olish maqsadida kapital qo'yilmalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli kompleks tadbirlar majmui, deb baholash mumkin.³

Investitsiya loyihasi – bu foyda uchun yo'naltirilgan investitsiyalardan asosli ravishda foydalanish strategiyasi tushuniladi. Ana shu jarayon loyiha tahlilida atroflicha o'rganilishi, iqtisodiy jihatdan asoslanishi lozim.

Investitsiya loyihasining ishlab chiqarilishi va amalga oshirilishi, birinchi navbatda, uning ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi va uzoq muddat mobaynida amal qilinishi bilan, ya'ni g'oyadan boshlab, uning to moddiylikka aylanishigacha bo'lgan jarayon bilan izohlanadi⁴.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi keng ma'noda quyidagi jarayonlarni aks ettiradi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Investitsiya loyihasini amalga oshirish bosqichlari⁵

³ Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili. – T.: Sharq, 2003., 256 b (100-bet).

⁴ Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultanov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Iqtisod- moliya", 2006. - 376 b.


⁵ Valiyeva S.X. O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish: I.f.d (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TDIU. Toshkent.- 2023/3/11

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar muhokamasi (Analysis/Анализ).

Davlat investitsiya dastur ijrosi yuzasidan 2023 yil yakunlariga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,1 foizga o'sdi.



2021-2023 yillarda moliyalashtirish manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar hajmi, trln so'm⁶ (2-rasm)

Hisobot davrida davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati \$5,9 milliardlik 318 ta yirik investitsiyaviy loyiha, hududiy investitsiya dasturlari doirasida esa \$7,4 milliardlik 15 710 investitsiyaviy loyiha amalga oshirildi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi tufayli jami 275 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash juda ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli omillarga bog'liq bo'lib, ularni ko'pincha faqat miqdoriy jihatidan ifodalash mumkin emas. Ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan individual omillarning sifat xarakteri loyiha yoki dasturni maqbul va to'liq ekspertizadan o'tkazish imkoniyatini sezilarli darajada murakkablashtiradi hamda tanlov paytida saralashni qiyinlashtiradi. Bu, birinchi navbatda, investitsiya dasturlarining ijtimoiy samaradorligi kabi ko'rsatkichga tegishli bo'lib hisoblanadi.

Amaliy faoliyatda investitsiyalarni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy asoslash zarurati bilan duch kelganda, shuni ta'kidlash kerakki, ko'pincha ilg'or texnologiyalar va texnologiyalarni joriy etishning milliy iqtisodiy ta'sirini baholash bir tomonlama, faqat iqtisodiy xususiyatga ega. Ushbu kamchilik investitsiya loyihalari va dasturlari samaradorligini hisoblashning bir qator usullariga xosdir.

Ularda keltirilgan ko'rsatkichlar ro'yxati ko'plab masalalarni qamrab oladi, ammo dasturni amalga oshirishning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish amaliy jihatdan yordam bermaydi. Samaradorlikni baholash metodologiyasi davlat dasturlari samaradorligi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiladi. Davlat investitsiya dasturlarining samaradorligini baholash metodologiyasi davlat dasturining har bir mas'ul

⁶Fuqarolar uchun byudjet: 2023 yil ijrosi. https://api.mf.uz/media/document_files/IB_2023_uz.pdf

ijrochisi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Davlat investitsiya dasturining samaradorligi davlat boshqaruvi sifatini belgilaydi. Davlat investitsiya dasturlari samaradorligini sifatli darajada baholash uslubiy, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy muammo hisoblanadi.

Ularning doirasida o'tkaziladigan davlat investitsiya dasturlari to'g'risidagi axborotning to'liq emasligi, shaffof emasligi tadbirlar davlat moliyasini boshqarish sohasida korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi. Davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish samaradorligini oshirish zarurati mavjud amaliyotni tahlil qilish va davlat investitsiya dasturlari samaradorligini baholashni belgilaydigan me'yoriy-huquqiy qoidalarni takomillashtirish zarurligini belgilaydi.

Investitsiya loyihalari faoliyat ko'lami, moliyaviy mablag'lar hajmi jihatidan bir-biridan farq qiladi, shuning uchun investitsiya loyihalari samaradorligini hisoblash uchun investitsiyalarning samaradorligini baholashning turli usullari qo'llaniladi, ular asosan diskontlash hisob-kitoblarida qo'llanilishi yoki qo'llanilmasligi bilan farqlanadi.

Davlat investitsiya dasturi samaradorligini hisoblashning oddiy usullari diskontlashni hisobga olmaydigan usullarni o'z ichiga oladi, bu esa o'z navbatida qoplash muddatini hisoblash, kapital uchun foyda stavkasini aniqlash, daromadlar yig'indisi va investitsiya xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida naqd pul oqimini hisoblash, qiyosiy samaradorlik usulini joriy xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida qo'llash, foyda massasini taqqoslash orqali hisoblashni anglatadi.

Investitsiya loyihalarining diskontlangan (chegirma) iqtisodiy samaradorligini baholash moliyaviy resurslar qiymati, inflyatsiya kabi jihatlarni hisobga olishga imkoniyat yaratadi. Ushbu maqsadlar uchun iqtisodiyotda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- sof diskontlangan qiymat usuli, joriy qiymat (kelajakdagi diskontlangan daromadlar miqdorini xarajatlar, kapital qo'yilmalar bilan taqqoslash imkonini beradi);
- diskontlangan pul oqimlari miqdorini dastlabki investitsiyalarga bog'lashga imkon beradigan rentabellik indeksi, bu yerda hisoblagich va maxraj nisbati birdan katta yoki kichik bo'lishi mumkin;
- investitsiya loyihasining butun davri uchun diskontlangan daromad miqdorining investitsiyalarga tenglashtirilgan nisbati sifatida chegirma stavkasi.

Davlat investitsiya dasturlarining investitsiya samaradorligini baholash uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- To'lov muddatini aniqlash usuli;
- O'rtacha daromad stavkasini hisoblash usuli;
- Rentabellik koeffitsiyentini hisoblash usuli;
- Mutlaq va nisbiy samaradorlikni hisoblash usuli;
- Qiyosiy samaradorlik usuli.

Ushbu baholash usullari diskontlashni hisoblashda qo'llanilsa, investitsiyalarning joriy qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlangan diskontlash koeffitsiyentiga ko'paytiriladigan kelajakdagi qiymatga teng bo'ladi:

$$D_k = 1 \setminus (1 + \text{diskont stavka})^n \quad (1)$$

bu yerda,

n -kelajakdagi qiymatdan qoʻshilish paytigacha boʻlgan vaqt davri. D_k har doim 1 dan kam. D_k vaqt faktori va ishlatilgan chegirma stavkasi miqdorini hisobga olgan holda pul miqdori qancha miqdorda kamayishini koʻrsatadi.

Kelajakdagi qiymatni diskontlash hisob-kitoblarini taʼminlash uchun chegirma koeffitsiyentlarining maxsus statistik jadvali qoʻllaniladi. Chegirma stavkasi ekspert baholash usullari yordamida aniqlanadi.

Toʻlov muddatini aniqlash usuli (PBP – payback period) davlat dasturiga kiritilgan mablagʻlar toʻlanadigan vaqtni belgilaydi:

$$PBP = \frac{DD_m}{A_t} \quad 2)$$

bu yerda,

PBP – qaytarish muddati;

DD_m – davlat dasturiga kiritilgan mablagʻlar miqdori;

A_t – asosiy tushumlar (moliyaviy natijalar).

Moliyaviy natijalar tushumlari yillar boʻyicha teng boʻlganda qoʻllaniladi.

Davlat dasturiga kiritilgan investitsiyalar uchun oʻrtacha daromad stavkasini hisoblash usuli. Ushbu koʻrsatkich davlat dasturi boʻyicha oʻrtacha yillik sof foydaning davlat dasturiga investitsiyalarning oʻrtacha qiymatiga nisbati bilan belgilanadi:

$$ID_d = \frac{YS_f}{I_{o'q}} \quad 3)$$

bu yerda,

ID_d – investitsiyalarning daromadlilik darajasi

YS_f – oʻrtacha yillik sof foyda

I_{o'q} – yillar boʻyicha investitsiyalarning oʻrtacha qiymati.

Rentabellik koeffitsiyentini hisoblash usuli – sof foydaning umumiy summasi davlat dasturiga investitsiyalar miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$R_k = \frac{SF_m}{DD_m} \quad 4)$$

bu yerda,

R_k – rentabellik koeffitsiyenti;

SF_m – sof foydaning umumiy miqdori;

DD_m – davlat dasturiga kiritilgan mablagʻlar miqdori.

Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan mablagʻlarning mutlaq va nisbiy samaradorligini baholash usuli:

$$DI_s = D - DD_m$$

bu yerda,

DI_s – davlat investitsiya dasturiga kiritilgan

5)

mablagʻlarning mutlaq

samaradorligi;

D – davlat dasturidan olingan daromad;

DD_m – davlat dasturiga kiritilgan mablag'lar miqdori.

$$DD_s = \frac{D}{DD_m} \quad 6)$$

bu yerda,

DD_s – davlat dasturiga kiritilgan mablag'larning nisbiy samaradorligi;

D – davlat dasturidan olingan daromad;

DD_m – davlat dasturiga kiritilgan mablag'lar miqdori.

Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan mablag'larning qiyosiy samaradorlik usuli:

$$Q_s = \frac{DD_m}{D} \quad 7)$$

bu yerda,

Q_s – qiyosiy samaradorlik;


DD_m – davlat dasturiga kiritilgan mablag'lar miqdori;

D – davlat dasturidan olingan daromad.

Davlat investitsiya dasturining mas'ul ijrochisi – davlat dasturining investitsiya samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqadi hamda ichki foydalanish uchun ham, qabul qilingan qarorlarni optimallashtirish uchun ham foydalanadi.

Davlat investitsiya dasturining mas'ul ijrochisi har bir davlat dasturiga nisbatan davlat dasturining investitsiya samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqadi. Mas'ul ijrochi tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya samaradorligini baholash metodologiyasi davlat dasturini baholash uchun ham, davlat maqsadli dasturlari, kichik loyihalarning investitsiya samaradorligini baholash uchun ham qo'llaniladi.

Ushbu 3-rasmda davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish samaradorligini baholashning takomillashtirilgan metodologiyasi asosida modulli yondashuv keltirilgan. Ko'rsatkichlarni mintaqani rivojlantirishning maqsadli strategiyasini tavsiflovchi modullar bo'yicha guruhlash orqali ma'lum bir davlat investitsiya dasturini amalga oshirish orqali erishilgan samaradorlikni baholash mumkin.



3-rasm. Iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturlari samaradorligini baholashning modulli usuli⁷

⁷Valiyeva S.X. O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish: I.f.d (PhD) darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. TDIU. Toshkent.- 2023/3/11

Keltirilgan 1-modul investitsiya dasturi samaradorligini nafaqat loyihada belgilangan dasturlar, kichik dasturlar va asosiy tadbirlarning maqsadlari bo'yicha, balki miqdoriy jihatdan baholanadigan ijtimoiy ahamiyatga ega ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir shaklida ham baholashga imkoniyat yaratadi.

2-modulning afzalligi moslashuvchanlik hamda miqdoriy ifodaning murakkabligi bilan tavsiflangan o'ziga xos mezonlar bo'yicha baholash uchun foydalaniladi, masalan, loyihani boshqarish sifati, xavf hamda salbiy ta'sirlarni hisobga olishda ishlatiladi.

3-modul budjet mablag'larini moliyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning ob'yektivligi hamda mavjudligini rivojlantirish uchun davlat investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash jarayoniga aholini jalb qilinishini baholashni o'z ichiga oladi.

4-modul budjetni ijro etish darajasining taxminiy ko'rsatkichlari, boshqa darajadagi budjetlardan jalb qilingan mablag'lar ulushi, shuningdek, budjetdan tashqari manbalar tizimini taqdim etadi. Kelajakda asosiy tadbirlarning rentabelligini belgilaydigan investitsiya loyihalari samaradorligi ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

Davlat investitsiya dasturlarining iqtisodiy samaradorligini davriy baholash investitsiya loyihalarini boshqarish sohasida asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli emas. Loyihaning hozirgi holati, jiddiy xatarlar va ularning loyihaga ta'siri darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish muhimdir. Barcha kerakli ma'lumotlar ma'lum bir sanada yangilanishi va rahbariyatga muntazam ravishda bitta formatda va bitta manbadan taqdim etilishi kerak. Agar ma'lumotlar ishonchli va o'z vaqtida bo'lsa, loyihani optimallashtirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezlashishi mumkin. Bunga investitsiya monitoringi orqali erishish mumkin.

Investitsiya monitoringi deganda – investitsiya loyahasini yoki uning alohida bosqichlarini amalga oshirish to'g'risida har tomonlama doimiy monitoring to'plash, tahlil qilish va ma'lumot berish tizimi tushunilishi kerak. Bu loyihaning borishi to'g'risida ishonchli prognozlarni tayyorlashni ta'minlaydi va yuzaga keladigan og'ishlarga javob berish tartib-qoidalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Investitsiya loyahasini amalga oshirish uni amalga oshirish jarayonini doimiy nazorat qilish, joriy natijalarni baholash va biznes-rejaga, qurilishni tashkil etish loyahasiga, ishlarni ishlab chiqarish loyahasiga, moliyalashtirish rejasiga, taqvim rejasiga yoki tarmoq jadvaliga va investitsiyalarni rivojlantirishda tartibga solinadigan boshqa hujjatlarga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.


Investitsion monitoringning asosiy maqsadi o'z vaqtida va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijalari va istiqbollari to'g'risida ishonchli ma'lumot olishdir.

Investitsion monitoringning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- investitsiya loyihasi parametrlarining rejalashtirilganidan chetga chiqishiga bo'lgan sabablarni aniqlash;
- investitsiya loyahasini amalga oshirish prognozlarini tuzish;

- loyihani rivojlantirishning salbiy va ijobiy tendentsiyalarini bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish;
- investitsiya loyihasining borishini kuzatish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Davlat investitsiya dasturlarining investitsiya monitoringi tizimi quyida 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Davlat investitsiya dasturlarini monitoring qilish tizimi⁸

Tizim samarali bo'lishi uchun uning tuzilishi ilmiy, uzviylik, murakkablik, ishonchlik, obyektivlik va samaradorlik tamoyillariga asoslanadi. Investitsiya loyihalarini monitoring qilish tizimligi loyihani amalga oshirishning butun davrida uni amalga oshirish zarurligini ifodalaydi.

Murakkablik investitsiya loyihasining barcha jihatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'zgarishini kuzatishga imkoniyat yaratadi. Ishonchlik investitsiya loyihasini izohlovchi ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligini ko'rsatadi. Samaradorlik investitsiya loyihasining amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish hamda qayta ishlash jarayonining qisqarishi va rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan chetlashgan taqdirda boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qaytadan o'zgartirish bilan bog'liq.

Xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Milliy iqtisodiyotda davlat investitsiya dasturlari doirasida investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotdan quyidagi *asosiy xulosalarni* chiqarish mumkin:

⁸Muallif ishlanmasi.

1. Milliy iqtisodiyotimizda ba'zi hududlarning investorlar uchun investitsiya muhiti jozibadorligi pastligi, chunki talab qilinadigan rentabellik darajasini tezda olish imkoniyati yo'qligi, shuning uchun bunday holat kapital qo'yilmalarning muqobil manbalarini izlashni talab etadi. Investitsiya loyihalari samarasini oshirishda standart biznes usullari ko'p hollarda mos kelavermaydi, shuning uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalarning samaradorligini baholashning yangi usullarini ishlab chiqish lozim.

2. Chet el investitsiyalarining asosan davlat investitsiya dasturlari doirasida respublika miqyosidagi yirik ishlab chiqarish birlashmalariga jalb qilinganligi sababli hududiy investitsiya dasturlari doirasida xorijiy investitsiyalar ulushi kamligicha qolmoqda. Mintaqalardagi mahalliy davlat hokimiyatlarining hududiy investitsiya dasturlari doirasidagi chet el kapitalini jalb qilishdagi vakolatlarini kengaytirish lozim bo'ladi. Natijada esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini soddalashtirish, undagi markazlashgan tizimni yengillashtirish va hududlarning chet el sarmoyasini jalb qilishdagi rag'batini oshirish imkoniyati yaratiladi.

3. Davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro elektron almashish imkoniyatini beruvchi elektron bazani shakllantirish, qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi negizida davlat ulushlari va davlat korxonalarini markazlashtirilgan tizimli hisobini olib borish, internet tarmog'ida investorlarga taklif qilinayotgan davlat aktivlari obyektlari to'g'risida batafsil ma'lumot beruvchi yagona portalni shakllantirish orqali xorijiy investorlarning xususiylashtirilayotgan davlat aktivlari bo'yicha xabardorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

4. Ishlab chiqarish omillarining maqbul strategiyasini aniqlashni hisobga olgan holda investitsiya loyihalari samaradorligini baholash investitsiya xavfini kamaytiradi hamda loyihalarni amalga oshirish yuzasidan iqtisodiy asoslangan qaror qabul qilishga zamin yaratadi, chunki: *birinchidan*, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlarini va eng maqbul loyihani asoslash usullarini tanlash mumkin bo'ladi. *Ikkinchidan*, Investitsion resurslar – ilmiy va texnologik taraqqiyotning rivojlantiruvchisi hisoblanadi. Qo'shimcha kapital qo'yilmalar hisobiga mehnat unumdorligining oshishi hamda boshqa resurslarni tejashga erishishga imkoniyat tug'iladi.

5. Noaniqlik va ma'lum darajada risklilik jarayonida investitsiya loyihasini tanlash uchun investitsiya obyektining keyingi faoliyati ssenariysiga qarab turli xil rivojlanish strategiyalari va taktikalarini shakllantirish zarur. Bu esa loyihaning yuqori natijasini olish imkoniyatlarini hisobga olishga hamda o'zgarishlarning mumkin bo'lgan darajalarini hisobga olgan holda tanlov strategiyasini amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References/Литературы)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-dekabrda PQ-459-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 14 yanvardagi 16-son qarori.
3. Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili. – T.: Sharq, 2003., 256 b (100-bet).

4. Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultanov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2006. - 376 b.
5. Valiyeva S.X. "O'zbekistonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini takomillashtirish" (PhD) dissertatsiya. 2023-yil.
6. Valiyeva, S. (2024). O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARASINI OSHIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH YO'LLARI. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 27–30. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss6/96
7. Valiyeva Sayyora Xushbakovna. (2022). IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF INVESTMENT PROJECTS IN UZBEKISTAN. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1533–1540. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/H8S7X>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

